

TUXTANAZAROV Dilmurod Solijonovich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrası PhD*

KURGANBAYEV Jasurbek Ikramjanovich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
magistranti*

INTERNETDA YOSH AVLODNI MONITORING QILISH TIZIMI

СИСТЕМА МОНИТОРИНГА МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ИНТЕРНЕТЕ

YOUNG GENERATION MONITORING SYSTEM ON THE INTERNET

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasiga internet texnologiyalarning ta'siri va ularni bartaraf etish usullari keltirib o'tilgan. Yoshlarni smartfonlarga va ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishi va bu orqali jamiyatda yoshlar o'rtasida turli xil muammolar ortib borishi yoritilgan. Bunday holatlarni oldini olish va yosh avlodni zamonaviy qurilmalardan foydalanishini monitoring qilib borish jarayonlari yoritib berilgan. Fami safe tizimining imkoniyatlari va undan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Fami safe, bloklash, sozlash, internet, salbiy axborot, kontent, mobil ilova, tizim, foydalanuvchi, dastur, android, monitoring, cheklov.

Аннотация. В данной статье упоминается влияние интернет-технологий на воспитание молодежи и пути их устранения. Подчеркнуто, что молодые люди становятся зависимыми от смартфонов и социальных сетей, и через это усугубляются различные проблемы среди молодежи в обществе. Объяснены процессы предотвращения подобных ситуаций и контроля за использованием современных устройств подрастающим поколением. Разработаны возможности системы Famisafe и инструкции по ее использованию.

Ключевые слова: Fami safe, блокировать, настройка, интернет, негативная информация, контент, мобильное приложение, система, пользователь, программа, андроид, мониторинг, ограничение.


Abstract. This article mentions the impact of

Internet technologies on the education of young people and ways to eliminate them. It is emphasized that young people become addicted to smartphones and social networks, and through this, various problems among young people in society are exacerbated. The processes of preventing such situations and controlling the use of modern devices by the younger generation are explained. Features of the Famisafe system and instructions for its use have been developed.

Keywords: Fami safe, block, setting, internet, negative information, content, mobile application, system, user, program, android, monitoring, restriction.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyoda 2 milliardga yaqin web-saytlar mavjud va ularning soni har soniyada o'zgarib turadi. Dunyo aholisini 42 % ijtimoiy tarmoqdan foydalanadi. 2022-yil noyabr holatiga ko'ra, internetda 1,996,172,229 ta veb-saytlar mavjudligi aniqlangan. Birinchi web sayt "info.cern.ch" 1991 yil 6 avgustda Tim Berners-Lee tomonidan yaratilgan [1,2].



1-rasm. 100 aholiga internet foydalanuvchilari yillar kesimida.

Internetdagi global tarmoqlarda foydali ma'lumotlar bilan bir qatorda foydalanuvchilarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan axborotlar ham tarqatilmoqdaki, ular bugun xalqaro hamjamiyatni tashvishga solmoqda. Bularning keng tarqalgani hayosiz mazmundagi veb-saytlardir, ular 4,2 milliondan ortiq. So'nggi yillarda terrorchi tashkilotlar g'oyalarini targ'ib qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni 7000 dan oshdi. Jahonning 38 foiz yoshlari shafqatsizlik, zo'rvonlikni targ'ib etuvchi materiallar ta'siriga tushayotgan bo'lsa, yana bir qanchasi o'z joniga qasd qilishni targ'ib qiluvchi 9 mingdan ziyod saytlar orqali osongina

jon taslim qilish «saboq»larini o'rganishyapti.

Virtual olamda insonning vaqtni idrok qilish tizimi buziladi, ijtimoiy faolligi kamayadi. Kompyuter qarshisida vaqt o'tganini sezmay qolishning boisi ham shunda. Virtual vositalarning salbiy ta'siri ma'naviy-axloqiy tanazzul bilan chegaralanib qolmay, insonning immun tizimini susaytirmoqda, umurtqa pog'onasi va ko'z kasalliklarini keltirib chiqarmoqda [2,3].


Bolalar internetdan foydalana turib yovuz niyatli odamlarga duch kelib qolmoqdalar. Internetdagi noma'lum kishi bilan muloqot ishonchli va do'stona munosabat o'rnatishga imkon yaratadi. Jinoyatchi ushbu afzallikdan foydalangan holda tajribasiz yoshlarni o'ziga bog'lab olmoqda. Ota-onalar farzandlarini interetdagi xavfdan asray oladi, buning uchun alabatta yoshlarni internetdan foydalanish jarayonlarini monitoring qilib borish zarur.

ASOSIY QISIM

Hozirgi kunda yosh avlodni kibermakonda himoyalashning ko'plab tizimlari mavjud. Bular ichida Wondershare's FamiSafe dasturi ko'plab imkoniyatlari va qulayliklari bilan ajralib turadi. Ushbu "FamiSafe" deb atalgan dasturiy mahsulotning vazifasi farzandlarning virtual olamda turli xil axborotlardan foydalanishni monitoring qilish va ularni ota-ona tomonidan nazoratini ta'minlashdir [4-6].


FamiSafe tizimining **Screen Time** (ekran aktivligi) bo'limida farzanding ekran harakatlari monitoring va uni nazorati amalga oshiriladi. Ushbu sahifa ichida bir qancha funksionalliklar mavjud bo'lib, ular quyidagilar (2-rasm):


- Top used apps (Ko'p foydalanilgan ilovalar);
- Instant Block (tezlik bilan bloklash);
- App Limit (Ilova chegarasi);
- Downtime (Uzilisht vaqti);
- Allowed Apps (Ruhsat berilgan ilovalar);



2-rasm. FamiSafe tizimining Screen Time (ekran aktivligi) bo'limi.

Ota-onaning FamiSafe dasturi orqali farzandi kun davomidagi smartfon ekran vaqtini analiz qilish imkoni bor. Bundan tashqari ota-ona farzandining smartfonidagi eng ko'p foydalanilayotgan ilovalarini ko'rishi bilan birgalikda, barcha ilovalarni zudlik bilan bloklashni **Instant Block** orqali amalga oshiradi. Farzandining vaqtini ko'p sarf bo'lishiga sabab bo'layotgan ilovalarga cheklov ya'ni limit berishi mumkin. Bu ishni ota-ona **AppLimit** bo'limida amalga oshiradi. **App Limit** sahifasining ko'rinishi 3- rasmda keltirilgan.






3-rasm. App Limit sahifasining ko‘rinishi.

Yuqoridagi App Limit sahifada farzandning smartfonidagi barcha ilovalar ma’lum kategoriyalarga bo‘lingan, ularni ota-ona berilgan kategoriyasi orqali ilovaga cheklov (limit) qo‘ya oladi.


Keyingi muhim bo‘limlardan biri **Downtime** funksionalligi shundan iboratki, farzandning ixtiyoriy ilovasiga bloklash uchun ma’lum vaqt intervalini o‘rnatish imkoniyatini yaratib beradi (4-rasm).



4-rasm. Downtime funksionalligi interfeysi.

Qo‘shimcha tarzda ota-onada haftaning barcha kunlari ixtiyoriy ravishda vaqt chegarasini qo‘yish imkoni bor. Buning uchun ota-ona **Custom** bo‘limida sozlamalarni amalga oshirgandan so‘ng, belgilangan tartibda ishlay boshlaydi [6,7].

Screen Time Limit funksiyasi bu qurilmaga kunlik cheklovni o‘rnatadi. Uni yuqoridagi konfiguratsiya kabi sozlashni imkoni bor ya’ni hafta kunlariga turli xil vaqtlarni sozlash yoki ayni bir vaqtni kiritish mumkin (5-rasm).




5-rasm. Screen Time Limit funksiyasi oyna ko‘rinishi.

Allowed Apps funksiyasi smartfondagi ma’lum ilovaga hamma vaqtda foydalanishga ruhsat berishni ta’minlab beradi. **Screen Time** imkoniyati orqali 6-rasmda ko‘rinib turgan birinchi kategoriyada hamma vaqt cheklov qo‘yilmaydigan

ilovalar ro'yhati mavjud bo'ladi, undan so'ng Screen Time orqali bloklanadigan ilovalar ro'yhati keltirib o'tilgan.

Home (Uy) sahifasidagi navbatdagi imkoniyat bu **App Blocker**. Bu imkoniyat smartfondagi barcha qurilmalarga bloklab qo'yish imkonini beradi. Asosiy funksionalligi shundan iborat (6-rasm).



6-rasm. App Blocker bo'limining interfeysi.

Activity Report funksionallik ham Home (Uy) sahifasida joylashgan bo'lib, uning asosiy vazifasi qaysi smartfondagi ilovalardan farzand qachon va qancha vaqt foydalanganligi haqida hisobot beradi. Bu hisobot kunlik, haftalik yoki ma'lum muddatlik bo'lishi mumkin (6-rasm) [3].


Home (Uy) sahifasining **Explicit Content Detection** funksionalligi farzandning smartfonidagi mavjud ilovalardan foydalanishda

turli xil taqiqlangan kontentlardan foydalanishini aniqlaydi va bu xaqda ota-onaga xabar beradi. Bu funksionallikning uchta asosiy hususiyati bor:

Birinchi, Ogohlantirishlar (**Alerts**) ya'ni aniqlangan shubhali kontent aynan shu bo'limda namoyish qilib boriladi.

Ikkinchi, ota-ona farzandning smartfonidagi yuqoridagi aytilgan ilovalarga o'xshash ilovalarga o'zining FamiSafe dasturi orqali bog'lanish (**Connection**)ni amalga oshirish xususiyati. Agar biror bir ilovaga bog'lanish bo'lmasa FamiSafe dasturi ota-onaga hech qanday ogohlantirish ko'rsatmaydi.

Uchinchi, Sozlamalar (**Settings**) bo'limida ota-ona FamiSafe yaratib bergan taxminiy shubhali so'zlarni ham tashkillab beradi, bundan tashqari ota-ona qo'shimcha ravishda o'zining dasturi yordamida shubhali so'zlar turini va ularni o'z ichiga qamrab oladigan so'zlarni yaratish imkonini ham mavjud (7-rasm).




7-rasm. Explicit Content Detection funksionalligi interfeysi.

YouTube App Control funksiyasi Home (Uy) sahifasidagi navbatdagi imkoniyat hisoblanadi. FamiSafe dasturida ota-ona farzandining YouTube dan foydalanishni nazorat qilib tura oladi. Bu funksionallikninh ham 3 ta xususiyati mavjud [5,6]:

History (Tarix) farzand o'zining smartfonida YouTube dan qanday kontentlar ko'rganligi haqida kunlik, haftalik hattoki oylik tarixni FamiSafe dasturida ota-onaga taqdim qilib borish.


Alerts (Ogohlantirishlar) bu imkoniyat ta'qiqlangan video yoki kanallarni kuzatganligi haqidagi ota-onani ogohlantiradi.

Settings (Sozlamalar)da ota-ona tomonidan ba'zi so'zlar bilan cheklovni amalga oshirishni imkon beradi.



8-rasm. YouTube App Control funksiyasi interfeysi.

Live Location Home (Uy) sahifasidagi eng asosiy funksionallikdan biri hisoblanib, uning ichiga ham yana qo'shimcha imkoniyat qo'shilgan. Bu funksionallik ota-ona farzandning real vaqtda joylashuv holatini ko'rib tura oladi. Buning uchun farzandning smartfonida birinchi navbatda internet mavjudligi, so'ng qurilmadan location (joylashuvni) ni yoqish talab etiladi. Bundan tashqari joylashuvni kunlik vaqt davomiyligi bo'yicha joylashuvlar tarixi (**location history**) ro'yhatini ham hisobot qilib ko'rsatib boradi. Bu eng qulay imkoniyatlardan bir hisoblanadi. Bundan tashqari ota-ona FamiSafe dasturida farzandini taqiqlagan joylarga borishini oldini olish maqsadida yoki tashrif buyurgan joylari haqida bildirishnoma (**notification**) qabul qilib tura olish imkoniyati ham mavjud.



8-rasm. Live Location sahifasi interfeysi.

Web Filter ushbu funksionallikning vazifasi ota-ona FamiSafe dasturida farzand turli xil taqiqlangan web saytlarga kirganda saytni bloklashni amalga oshirish imkoniyati hisoblanadi. Bu funksionallikda **Categories** (Kategoriyalar) soʻzlar yordamida bloklanishi mumkin boʻlgan soʻzlar roʻyhati beriladi.

XULOSA

Hozirgi kunda yoshlar tarbiyasiga internet texnologiyalarning taʼsiri brogan sari ortib bormoqda. Yoshlarni smartfonlarga va ijtimoiy tarmoqlarga bogʻlanib qolishi va bu orqali jamiyatda yoshlar oʻrtasida turli xil muammolar kun sayin ortib bormoqda. Bunday holatlarni oldini olish va yosh avlodni zamonaviy qurilmalardan foydalanishini monitoring qilib borish hamda yoshlarga zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni boʻyicha yoʻriqnomalar koʻrsatish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shunday ekan yosh avlodni tarbiyalashda ota-onalar va masʼullar kibermakonda nazorat qilishi juda zarur hisoblanadi. Albatta nazoratni ushu ishda keltirilgan tizimlar yordamida amalga oshirish orqali yaxshi natijalarga erishishiladi [7-9].

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Adnyani, L. D. S., Mahayanti, N. W. S., & Suprianti, G. A. . (2020). PowToonBased Video Media for Teaching English for Young Learners: An Example of Design and Development Research. 394 (January 2012). – P. 221–226. <https://doi.org/10.2991/assehr.k.200115.036>
2. Anita, A. S., & Kardenia, A. (2021). the Effect of Using Powtoon Toward Students ' Motivation in Writing. 6 (1). – P. 1–13.
3. Tuxtanazarov D.S., Kurganbayev J.I., Kibermakonda yosh avlodni salbiy axborotlardan ximoyalash va nazorat qilish tizimlari // Islom tafakkuri (Maxsus son) 2022. – 122-127 b.
4. Tuxtanazarov D.S., Buvashev S.O., Kibermakonda xavfsizlikni taʼminlashning zamonaviy usul va algoritmlari // Islom tafakkuri (2-son) 2021. – 157-160 b.
5. Tuxtanazarov D.S., Maxkamov A.A., Dadamuhamedov A.I., Axborotlashgan makonda yoshlar ongiga salbiy axborotlarning taʼsiri // Islom tafakkuri (2-son) 2022. – 244-247 b.
6. Tuxtanazarov D.S., Bekchanova S.A., Kurganbayev J.I., Zamonaviy tizimlar yordamida internetda yosh

avlodni salbiy axborotlardan himoylash va ularni nazorat qilish // Islom tafakkuri (Maxsus son) 2021. – 131-134 b.

7. <https://famisafe.wondershare.com/>
8. <https://www.youtube.com/>
9. <https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan>